

**12.08.2022 131782 lotga asosan
OLDI-SOTDI SHARTNOMASI-12/08-1**

2022 y. «24» 8

349-7-105-MT/2022-
son

Urgut t.

«Urgkam Mebel» MChJ, keyingi o‘rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi **X.Boqiyev** nomidan, bir tomondan va **Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi**, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi, O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi rahbar **J.Zoitov** nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga o‘z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

№	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Bahosi	Summasi
1	Sochiq	dona	7828	14800	115854400
2	Ishchi xodim xalati	dona	273	148000	40404000
QQS bilan jami					156 258 400.00

1.2. Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan jami **156 258 400.00** (Bir yuz ellik million ikki yuz ellik sakkiz ming to‘rt yuz) so‘mni tashkil qiladi.

2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. “Sotib oluvchi” mazkur shartnomani Urgut tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to‘lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so‘ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to‘laydi.

2.2. “Sotuvchi” avans mablag‘lari Sotuvchining tegishli hisobvarag‘iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. “Sotuvchi” amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. “Sotib oluvchi” tovarlarni qabul qilishda “Sotuvchi” ishtirokida olinayotgan tovarlarning to‘liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko‘rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan o‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo‘yicha barcha xarajatlari Sotib oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.



Sotuvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Sotuvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlarni kelishuviga asosan shartnomani 5.1 bandi bajarilmagan taqdirda tumanlararo Iqtisodiy sudiga murojaat qilinib, sud orqali hal qilinadi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.


8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-y. 31-dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Sotuvchi	Sotib oluvchi
«Urgkam Mebel» MChJ	Urgut tuman maktabgacha ta'lim bo'limi
Manzil: Urgut tuman Mergancha mah	Manzil: Urgut shahri Navoiy shoh ko'chasi
INN: 305212182	INN: 207266806 OKONX: 92400
OKONX: 71150	X/R: 1002286018236709110251001
X/R: 20208000100829985001	23402000300100001010
Bank: TIF Milliy bank Urgut bo'limi	Toshkent sh. Markaziy Bankining Toshkent sh. XKKM
MFO: 00865	MFO: 00014 INN: 201122919
Rahbar:  X.Boqiyev	Rahbar: J.Zoitov
M.O' (imzo)	M.O' (imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ QF0313427633

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Oldi-sotdi shartnoma

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:

Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo’limi tomonidan “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali 2022-yil 19-avgust kuni TX07203154-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

4. Loyihaning qisqacha mazmuni:

4.1. «Urgkam Mebel» MChJ, keyingi o‘rinlarda Sotuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikatsiyaga asosan, Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo’limi keyingi o‘rinlarda Sotib oluvchiga o‘z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

4.2. Shartnomaning umumiy summasi 156 258 400.00 (Bir yuz ellik olti million ikki yuz ellik sakkiz ming to‘rt yuz) so‘mni tashqil qiladi.

XULOSA:

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “**Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida**” 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qaroriga hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko‘rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**



Q.Mingboyev

2022-yil 22-avgust